

MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA REFLEKTIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

O'rinboeva Xayotxon Maxamadinovna

Katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda reflektiv yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Refleksiya ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsining o'z faoliyatini baholashi, tahlil qilishi va takomillashtirishiga xizmat qiladi. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda reflektiv kundaliklar, o'z-o'zini tahlil jadvallari va fikr mulohazalar muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Tadqiqotda nazariy manbalar tahlili hamda amaliy kuzatish natijalari asosida reflektiv yondashuvning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: refleksiya, mustaqil ta'lim, reflektiv yondashuv, o'qituvchi tayyorlash, o'z-o'zini baholash, reflektiv kundalik, metakognitiv ko'nikma, o'zini rivojlantirish.

ABSTRACT This article deals with the issues based on analyzing the importance of the reflective approach in developing independent learning skills among future English language teachers. Reflection serves as a means for teachers to evaluate, analyze, and improve their professional activity throughout the learning process. Reflective journals, self-assessment charts, and feedback discussions are used as essential tools for organizing effective independent learning. The study presents findings based on the analysis of theoretical sources and practical observations, highlighting the positive impact of the reflective approach on the quality of education.

Keywords: reflection, independent learning, reflective approach, teacher training, self-assessment, reflective journal, metacognitive skill, self-development.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat bilim beruvchi, balki mustaqil fikrlovchi, tahlil qiluvchi va o'z faoliyatini takomillashtiruvchi shaxs sifatida shakllanishni talab etadi. Shu sababli, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida reflektiv yondashuv markaziy o'rinni egallaydi. Mustaqil ta'lim ko'nikmalari — bu talabanning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va tahlil etish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi murakkab tizimdir.

Reflektiv yondashuv o'quvchi va talabanning o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, natijalarini tahlil qilishga undaydi, bu esa ularning mustaqil o'rganish salohiyatini oshiradi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun bu jarayon ikki yo'nalishda muhim: birinchidan, u o'zining kasbiy rivojlanishini boshqaradi; ikkinchidan, kelgusida o'quvchilarga reflektiv yondashuv asosida ta'lim berishga tayyorlanadi.

Pedagogik amaliyotda reflektiv yondashuvni joriy etish uchun bir necha samarali vositalar qo'llaniladi: reflektiv kundaliklar, portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, o'zaro fikr almashuv hamda metakognitiv mashg'ulotlar. Bu vositalar talabaning o'z o'quv faoliyati ustidan nazorat o'rnatishiga yordam beradi va uning bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi qarorlari, xususan, "Ta'lim sifatini oshirish va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish to'g'risida"gi farmonlarda ham reflektiv yondashuvni qo'llash zarurati ta'kidlanmoqda. Chunki, global raqobat sharoitida mustaqil fikrlovchi, reflektiv o'qituvchi kadrlarni tayyorlash eng muhim vazifalardan biridir.

Reflektiv yondashuv bugungi kunda zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Uning mohiyati o'qituvchi va talabaning o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ongli faoliyatida namoyon bo'ladi. Ilmiy manbalarda refleksiya mustaqil ta'limning psixologik, metodik va pedagogik mexanizmlarini faollashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi.

Dastlab refleksiya tushunchasi J. Dewey (1933) tomonidan "tajribadan o'rganish" sifatida izohlangan. Unga ko'ra, reflektiv fikrlash — bu insonning muammoli vaziyatlarga javob topish uchun o'z tajribasini tahlil etish jarayoni. Deweyning g'oyalari keyinchalik Kolb (1984) tomonidan ishlab chiqilgan "Tajriba asosidagi o'rganish modeli"da yanada tizimlashtirilgan. Kolb modelida o'rganish to'rt bosqichdan iborat: konkret tajriba, reflektiv kuzatish, abstrakt tushuncha shakllantirish va faol eksperiment. Ushbu sikl reflektiv yondashuvni mustaqil o'rganishning tabiiy mexanizmi sifatida asoslaydi [1; 5].

D. Schön (1983) reflektiv amaliyot nazariyasini ishlab chiqib, o'qituvchini "reflektiv amaliyotchi" sifatida ta'riflagan. Unga ko'ra, o'qituvchi o'z dars jarayonini tahlil qilib, o'zining pedagogik qarorlarini qayta ko'rib chiqish orqali professional o'sishga erishadi. Schön refleksiyani ikki turga ajratadi: "action paytida refleksiya" (reflection-in-action) va "actiondan keyingi refleksiya" (reflection-on-action). Bu ikki bosqich mustaqil ta'limda metakognitiv tafakkur va o'zini baholashning shakllanishini ta'minlaydi [2].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham reflektiv yondashuvga qiziqish ortib bormoqda. A. Jo'raev (2020) mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda refleksiya va o'z-o'zini baholashning o'zaro bog'liqligini tahlil qilgan. U reflektiv faoliyatni talabaning mustaqil ta'limdagi "ichki motivatsiya mexanizmi" sifatida talqin qiladi [3]. N. Tursunova (2021) esa refleksiya orqali metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish metodlarini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mustaqil ta'limida reflektiv topshiriqlar va o'zaro tahlil metodlarini samarali deb topgan [7].

So'nggi yillarda reflektiv yondashuvni raqamli ta'lim bilan integratsiyalash yo'nalishida ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, A. Karpov (2022) o'z ishida



onlayn platformalarda reflektiv tahlilni amalga oshirishning afzalliklarini ko'rsatib o'tadi. U Moodle, Padlet va Google Classroom tizimlarida yaratilgan reflektiv jurnallar talabalarning o'z bilimlarini tahlil etish, o'z ustida ishlash va hamkorlikda o'rganish jarayonlarini tezlashtirganini ta'kidlaydi.

Reflektiv yondashuvni mustaqil ta'lim bilan bog'lashda metakognitiv nazariya ham muhim o'rin tutadi. Flavell (1979) metakognitsiyani shaxsning o'z tafakkuri ustidan nazorat qilish qobiliyati sifatida ta'riflab, refleksiyaning uning amaliy ko'rinishi deb hisoblaydi. Shu sababli, reflektiv yondashuvni mustaqil ta'lim metodikasiga integratsiyalash talabalarida "o'rganishni o'rganish" salohiyatini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, reflektiv yondashuvning samaradorligi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Kognitiv daraja — o'quvchi o'z bilimlarini anglaydi, xatolarini tahlil qiladi va strategiyasini o'zgartiradi.

2. Metakognitiv daraja — o'rganish jarayonini boshqarish, rejalashtirish va baholash ko'nikmalari shakllanadi.

3. Affektiv daraja — talabaning o'z o'quv faoliyatiga ijobiy munosabati, motivatsiyasi va ishonchi ortadi.

Reflektiv yondashuv nafaqat o'qituvchi tayyorlash jarayonini takomillashtiradi, balki talabaning mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantiruvchi psixologik-pedagogik asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari bilan o'tkazilgan kuzatuv va so'rovlarni shuni ko'rsatdiki, reflektiv yondashuvni qo'llagan guruh talabarlari o'z o'quv faoliyatini samaraliroq tashkil etgan. Ular o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, shaxsiy o'sish rejasini tuzganlar.

XULOSA

Reflektiv yondashuv mustaqil ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilganlik, faollik, tanqidiy fikrlash va mas'uliyatni kuchaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, reflektiv kundaliklar, o'z-o'zini baholash jadvalari va reflektiv yozuvlar orqali talabalar o'z faoliyatiga ongli yondashuv shakllanadi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, reflektiv yondashuvni mustaqil ta'lim tizimiga keng joriy etish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini nafaqat samarali o'rganuvchi, balki o'z ustida ishlovchi, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Dewey, J. How We Think. — Boston: D.C. Heath, 1933. — 280 b.



2. Schön, D. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — London: Temple Smith, 1983. — 374 b.
3. Жўраев А., Турсунова Н. Педагогик тажрибада рефлексив ёндашувнинг ўрни. — Тошкент: Фан, 2020. — 145 б.
4. Moon, J. Reflection in Learning and Professional Development. — London: RoutledgeFalmer, 1999. — 198 b.
5. Турсунова Н. Мустақил таълимда метакогнитив кўникмаларни шакллантириш усуллари. — Тошкент: TDPU, 2021. — 132 б.